

TA'LIM BARCHA UCHUN. INKLUZIV TA'LIM MUQARRAR TA'LIM

¹Dehqonova Muborakxon G'iyosiddinovna
CHDPU Maxsus pedagogika kafedrasida o'qituvchisi,

²Fayzullayeva Robiya Xurshid qizi
Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti
logopediya yo'nalishi 2-bosqich talabasi.
<https://doi.org/10.5281/zenodo.7384816>

Annotatsiya: ushbu maqolada imkoniyati cheklangan shaxslar ta'limi olishi uchun joriy qilingan meyoriy hujjatlar va ularning amaliyotga tatbiqi to'g'risida malumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim, inkluziv, farmon, maxsus ta'lim, rivojlanish.

Har qanday jamiyatda kelajak vorislari bo'lmish farzandlarni mas'uliyatni his etadigan, ularni davlat taraqqiyoti va gullab-yashnashiga salmoqli ulush qo'shadigan munosib fuqarolar bo'lib etishishlariga katta umid bilan qaraladi. Dunyoga "O'zbek modeli" deb nom olgan rivojlanish yo'li bilan tobora ko'proq tanilayotgan O'zbekistonda ham bolalar huquqlarini himoya qilishga juda kata e'tibor berilmoqda. Mamlakatimizda maktab, litsey, gimnaziya, kollej kabi bilim dargohlari bilan birgalikda turli maxsus maktab internatlar, mehribonlik uylari faoliyat ko'rsatayotganligi ham fikrimizning isbotidir. Ko'plab davlatlarda bo'lgani kabi O'zbekistonda ham imkoniyati cheklangan bolalar uchun maxsus tashkillangan maktablar bor. Ularning vazifasi bolalarni maxsus o'quv yurtlariga tayyorlashdir.

Bolalarni himoya qilish xalqaro tashkiloti Konvensiya tizimiga o'zining asosiy maqsadi etib bola huquqlarini asos etib oladi. Bola huquqlari xalqaro Konvensiya hamma bolalarning ehtiyojini hisobga olgan, huquq va qobiliyatlarini

Hurmat qiladigan ta'lim tizimini yaratish g'oyasini ilgari surdi. Chunki har bir bolada – u sog'lommi yoki nogironmi – takrorlanmaydigan xarakter, qiziqish, imkoniyat va bilimga ehtiyoj bor.

Jahonning rivojlangan mamlakatlarida yoshlarning sifatli ta'lim olishi, kasb-hunar egallashini ta'minlashga hamda ularni mehnat bozoriga tez moslashuvchan, raqobatbardosh mutaxassis, ijtimoiy-siyosiy munosabatlarda faol shaxs sifatida tayyorlashga yo'naltirilgan rivojlantiruvchi ta'lim modellari tatbiq etilgan. YuNESKO xalqaro tashkiloti tomonidan qabul qilingan "Jamoatchilik Asosidagi Reabilitatsiya (JAR) bo'yicha yo'riqnoma"da imkoniyati cheklangan shaxslarning ta'lim olishi, turli sohalarda o'qish imkoniyatlariga ega bo'lishi, o'z salohiyatlaridan to'la foydalanib, g'urur va qadr-qimmatini oshirishi,

jamiyatning faol a'zosiga aylanishiga erishish hamda ularda ijtimoiy faollik motivatsiyasini intensiv rivojlantirish strategiyalari belgilab qo'yilgan .

Jahonda ta'lim barcha uchun tamoyiliga asoslangan inklyuziv (sog'lom va imkoniyati cheklangan bolalarning birgalikda ta'lim olishi) ta'limni keng joriy etish, uzluksiz ta'limning barqarorligini ta'minlovchi umumpedagogik qarashlar, ilg'or tendensiyalar, innovatsion hamda variativ texnologiyalarni aniqlash, tanlash va amaliyotga samarali joriy etish bo'yicha ilmiy-nazariy tadqiqot ishlari AQSh, Fransiya, Germaniya, Shveysariya, Rossiya, Belorussiya, Qozog'iston hamda boshqa davlatlarda olib borilmoqda. Nogironlikni erta aniqlash texnologiyalari, ta'lim muassasalarida korreksion-kompensatsion yondashuvlar, kommunikativ tizim tamoyillarini samarali qo'llash orqali o'quv fanlarini o'qitish, o'quvchilarni oilaga, mehnatga tayyorlash mazmuni va mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlarga ustuvorlik berilgan.

Mamlakatimizda jamiyatning to'laqonli a'zolari sifatida nogironligi bo'lgan shaxslarning manzilli ijtimoiy muhofazasini kuchaytirishning huquqiy-me'yoriy asoslari ishlab chiqildi, ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasi mustahkamlandi. Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlari asosida tashkil etiluvchi kar, zaif eshituvchi bolalar uchun oilada yakka tartibdagi, ixtisoslashtirilgan va inklyuziv ta'lim mazmuni zamon talablari hamda xalqaro miqyosdagi yondashuvlar asosida takomillashtirildi. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida ta'limning barcha bo'g'ini va turlari qatorida ixtisoslashtirilgan umumiy o'rta ta'lim tizimini tubdan yaxshilash, bu jarayonga innovatsion texnologiyalarni olib kirish ustuvor vazifalar sifatida belgilandi . Natijada mamlakatimizda yosh avlodni har tomonlama yetuk, zamon talablari asosida o'qitish, tarbiyalash bo'yicha ta'lim xizmatlarining optimallasuvi, pedagogik jarayonlarni tashkil etish mexanizmlarining yanada modernizatsiyalashuviga keng imkoniyatlar yaratildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli, 2017 yil 1 dekabrda "Nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5270-sonli va 2019 yil 29 apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-sonli Farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 6 apreldagi "Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 187-sonli Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli

boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertasiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

“Ta’lim to’g’risida”gi Qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturida ta’kidlanganidek, birinchidan, ta’lim uzluksizligini yangi asosga qurish kerak. Ikkinchidan, bilim oluvchi, har qanday intellektual yuklamaga bardosh beruvchi robot shaklidagi shaxsni shakllantirish davri ortda qoldi. Uchinchidan, ta’lim ko’p bosqichli, turlicha maqsadga yo’naltirilganligi bilan oldingilaridan keskin tafovutlanishi lozim. To’rtinchidan, uzluksiz ta’lim tizimi barkamol insonni kamol toptirishga xizmat qilishi joiz. Davlat hujjatlarida shaxs asosiy figuraga aylangan bo’lib, u ta’lim diadasining teng huquqli sub’ektiga aylanishi ko’zda tutiladi. Ta’lim sub’ekti sifatida talqin qilinayotgan o’quvchi mustaqil fikrlovchi, ijodiy fikr yuritishga odatlangan shaxs tarzida kamol topishi maqsadga muvofiq. Ana shunday murakkab jarayonning genezisi boshlang’ich sinf hisoblanadi. Ushbu sinflarning o’quvchilarida tafakkur rivojlanishini o’rganish, aqliy taraqqiyotini tadqiq etish va tashxis qilish asosidagina ta’lim jarayonini mukammallashtirish mumkin.

Hozirgi davrning dolzarb muammolaridan yana biri - bu o’quvchilarning jismoniy yetukligi, qobiliyatligi, bilim darajasi, aqliy kamoloti jihatidan o’zaro qanchalik farq qilishlarini boshlang’ich sinflardayoq psixologik-pedagogik nuqtai nazardan oqilona tashxis qila olishga bog’liqligini aniqlashdir. Chunki har bir o’quvchining o’ziga xos xususiyatlariga alohida e’tibor bergan holda o’quv va tarbiya ishlarini to’g’ri tashkil etish yo’li bilan ko’pgina qiyinchiliklarni bartaraf qilish mumkin. Boshlang’ich sinflarda aqliy taraqqiyotga alohida e’tibor berish ta’lim samaradorligining kafolatidir.

Jahonda jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsonlari bo’lgan bolalarni o’qitish, tarbiyalash va ijtimoiylashtirish masalasi ilmiy jamoatchilik tomonidan keng tadqiq etib kelinmoqda. Dakar deklaratsiyasi asosida qabul qilingan “Ta’lim hamma uchun” reja-dasturiga muvofiq butun jahonda umumiy ta’lim tizimiga inklyuziv ta’limni joriy etish masalasi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Bu, o’z navbatida, maxsus ta’lim oldiga bo’lajak defektologo’qituvchilarning ta’lim dasturlariga mazkur ta’lim prinsiplarini kengroq joriy qilish hamda bunga erishishning muhim omillaridan biri sifatida ularning kasbiy ijodkorligini rivojlantirish talablarini qo’yadi. Mustaqillik yillarida respublikamizda ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarning maktabgacha, umumiy o’rta, o’rta maxsus, kasb-hunar, oliy ta’lim va maktabdan tashqari ta’lim tizimi hamda zamonaviy talablarga javob beradigan defektolog-mutaxassislarni tayyorlash tizimi tubdan isloh qilindi. Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasasida o’qitish va tarbiyalash jarayoni o’quvchilarning alohida xususiyatlarini e’tiborga olgan holda umumiy

o'рта ta'limning davlat standartiga muvofiq belgilandi va maxsus korreksion tuzatish uslublaridan foydalanilgan holda olib borilishi joriy etildi. Nogiron bolani ilk yoshidan tashxis qilish, korreksionpedagogik amaliy yordam ko'rsatish ishlarini samarali amalga oshirish uchun oligofrenopedagogika, tiflopedagogika, surdopedagogika va logopediya yo'nalishlari bo'yicha mutaxassislarni tayyorlash va qayta tayyorlash ishlari takomillashtirildi. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida "...imkoniyati cheklangan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, nogiron, aholining boshqa ehtiyojmand toifalarining to'laqonli hayot faoliyatini ta'minlash uchun ularga tibbiyijtimoiy yordam ko'rsatish tizimini yanada rivojlantirish va takomillashtirish" kabi vazifalar belgilanib, bugungi kunda bo'lajak defektologlarning kasbiy kompetentligini oshirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Dunyoda bo'lajak defektologlarning kasbiy ijodkorligini rivojlantirishda ta'limda akmeologik yondashuvdan kenroq foydalanish, bo'lajak defektologlarning axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanishga doir kompetentligini rivojlantirish, kasbiy ijodkorlikni rivojlantirishning modernizatsiyalashgan didaktik ta'minotini yaratish, maxsus ta'lim sharoitida raqobatbardosh defektologlarni tayyorlashning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish, shuningdek, jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsonlari bo'lgan o'quvchilarni o'qitish texnologiyalarini takomillashtirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G'iyosiddinovna, D. M. (2022). LOGOPEDIK MASHG'ULOTLARNI SAMARALI TASHKIL ETISHDA ARTIKULYATSION GIMNASTIKA O'RNI. TA'LIM VA RIVOJLANISH TANLILI ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(10), 360-365.
2. Гиосиддиновна, Д.М. (2022). ТАЛИМ МУАССАСАЛАРИДА ИНКЛЮЗИВ ТАЛИМНИ РИВОЙЛАНТИРИШ ВА ТАТБИК ЭТИШ. ТАЛИМ ВА РИВОЙЛАНИШ ТАХЛИЛИ ОНЛАЙН ИЛМИЙ ЖУРНАЛИ, 2 (10), 340-344.
3. Муборак, Д., и Лобар, С. (2022). МАКТАБГАЧА ТАРБИЯ ЙОШИДАГИ БОЛАЛАРДА НУТКНИНГ КЕЧ РИВОЙЛАНИШИ. ТАЛИМ ВА РИВОЙЛАНИШ ТАХЛИЛИ ОНЛАЙН ИЛМИЙ ЖУРНАЛИ, 2 (10), 345-349.
4. Муборак, Д., и Фарангис, И. (2022). НУТК КАМЧИЛИКЛАРИНИ ПАЙДО БО'ЛИШИДА АРТИКУЛЯЦИОН АППАРАТ ХОЛАТИНИ О'РГАНИШ ЗАРУРАТИ. ТАЛИМ ВА РИВОЙЛАНИШ ТАХЛИЛИ ОНЛАЙН ИЛМИЙ ЖУРНАЛИ, 2 (10), 366-370.
5. G'iyosiddinovna, D. M. (2022). 4+ 2 TA'LIM TIZIMIDAGI O'RNI. TA'LIM VA RIVOJLANISH TANLILI ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(10), 389-393.
6. Муборак Д. и Шахноза М. (2022). КАСБИЙ КОМПЕТЕНСИАНИ РИВОЙЛАНТИРИШДА МЕТОДИК ЖАМЛАНМАЛАР ЙИГИШ. ТАЛИМ ВА

- РИВОЙЛАНИШ ТАХЛИЛИ ОНЛАЙН ИЛМИЙ ЖУРНАЛИ , 2 (10), 371-376.
7. Муборак Д. и Шахноза М. (2022). КАСБИЙ КОМПЕТЕНСИАНИ РИВОЙЛАНТИРИШДА МЕТОДИК ЖАМЛАНМАЛАР ЙИГИШ. ТАЛИМ ВА РИВОЙЛАНИШ ТАХЛИЛИ ОНЛАЙН ИЛМИЙ ЖУРНАЛИ , 2 (10), 371-376.
8. Муборак Д. и Шахноза М. (2022). КАСБИЙ КОМПЕТЕНСИАНИ РИВОЙЛАНТИРИШДА МЕТОДИК ЖАМЛАНМАЛАР ЙИГИШ. ТАЛИМ ВА РИВОЙЛАНИШ ТАХЛИЛИ ОНЛАЙН ИЛМИЙ ЖУРНАЛИ , 2 (10), 371-376.
9. Dehqonova, M., & Najmiddinova, N. (2022). ALOHIDA ENTIYOJGA EGA BO'LGAN BOLALARNING OILAGA MOSLASHISHI UCHUN MUHIM OMILLAR. YANGI O'ZBEKISTONDA MILLIY TARAQQIYOT VA INNOVASIYALAR, 90-92.
10. G'iyosiddinovna, D. M. (2022). МАКТАБГАЧА YOSHDAGI ESHITISHDA NUQSONI BO'LGAN BOLALARDA KORREKSION ISHLARNING ANAMIYATI. BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI, 475-471.
11. Кодирова, Ф. У., & Кабилова, Ш. Х. (2021). ПОВЫШЕНИЕ КАЧЕСТВА ИНКЛЮЗИВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В УСЛОВИЯХ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ИННОВАЦИОННОГО КЛАСТЕРА. Academic research in educational sciences, 2(CSPI conference 1), 109-115.
12. Усаров Ж.Э. Кобилова Ш.Х. Теоретические и концептуальные вопросы инклюзивного образования Интеграция науки, образования и практики. 2021. №2 Выпуск: 2181-1776. -Б. 37-45.
13. Кобилова, Ш. Х., Сафарова, Ф. А., & Ахророва, Г. У. (2022). Перспективные возможности внедрения инклюзивного образования в жизнь сообщества. Ta'lim va rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnali, 2(10), 441-443.
14. Кобилова, Ш. Х., Икромова, Н. Ф., & Болиева, Н. Т. (2022). Инклюзивное образование и его эффективность в социально-педагогической. Ta'lim va rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnali, 2(10), 438-440.
15. Усаров, Ж. Э., Кобилова, Ш. Х. (2022). Инклюзив таълим ва унинг ижтимоий- педагогик омиллари. Халқаро тажрибалар ва ривожланиш истиқболлари, 1(3), 275-277.
16. Кобилова, Ш. Х., Абдурахимова, Д. (2022). Инклюзив таълимни ташкил этишдаги имкониятлар ва мавжуд муаммолар. Халқаро тажрибалар ва ривожланиш истиқболлари, 1(3), 267-268.
17. Кобилова, Ш. Х., Бобохонова, М. (2022). Кўриш нуқсонига эга шахслар нутқи ва мулоқотининг нутқий бўлмаган воситаларини ривожлантириш усуллари. Образование и наука в XXI веке, 5(24), 579-581.